



## YALPIZDOSHLAR (LAMIACEAE) OILASINING DORIVOR VAKILLARINI ASRANG.

**Jo'rayev Zuxuridin**

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

**Mingboyev Farhodjon**

*Farg'ona davlat universiteti talabasi*

**Annotatsiya:** *Mazkur maqolada O'zbekiston florasida uchraydigan dorivor va shifobaxsh o'simliklar ichida Yalpizdoshlar(Lamiaceae) oilasining vakillarini dorivorlik xususiyati va kamayib ketish sabablari keltirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *nastoyka, flavonoidlar, alkaloidlar, vegetatsiya, nektar, karotin, biosfera, stahidrin, iridoidlar, vitamin, preparat, abort.*

Ma'lumotlarga ko'ra Turon zaminida uchraydigan o'simliklarning nomi dastlab zardushtiyarning "Avesto" nomli kitobida tilga olingan. Keyinchalik Ar-Roziy, Ibn-Sino, Beruniy, Yusufiy kabi allomalar va hakimlar o'z kitoblarida bayon etgan. Shifobaxsh o'simliklardan tibbiy maqsadlarda foydalanish borasida Abu Ali Ibn Sinoning "Kitob al - Qonun fittib" asarida 476 ga yaqin o'simliklarning shifobaxsh xususiyatlari va ularni ishlatish usullari to'g'risida ma'lumotlar keltiriladi. Beruniy o'zining "Saydana" asarida O'rta Osiyoda o'sadigan 750 tur dorivor o'simliklarni tafsiflaydi

Xozirgi kunda xalq orasida o'tmish tabobatiga qiziqish kundan kunga ortib bormqda. Buning asosiy sabablari zamonaviy tibbiyot kuchsiz bo'lib qolganda xalq tabobatida qo'llab kelingan dorivor o'simliklar ijobiy natija berayotganligi, ularning kishi organizimiga salbiy ta'siri kamligi va iqtisodiy tomondan yengilligi xisoblanadi.

O'zbekiston florasida uchraydigan dorivor va shifobaxsh o'simliklar ichida Yalpizdoshlar(Lamiaceae) oilasining o'rni nihoyatda ahamiyatli. Bu oilaning dorivor vakillari xususan yalpiz, marmarak, bozulbang, ko'kamaron, quddus , bo'znochi va boshqa turkumlari xalqimizga yaxshi tanish.Shularga misol tariqasida quyidagilarni keltirish mumkin:

Xushbo'y marmarak (SHalfey muskatnby-Salvia sslarea L). Ko'p yillik, poyasi tik o'suvchi, yuqori qismidan shoxlanuvchi, qalin uzun tuklar bilan qoplangan, balandliki 50-100 sm. Barglari yirik tuxumsimon, asosi yuraksimon, kosachasi 9-11 mm uzunlikda qovurg'ali, qalin bezchali tuklar bilan qoplangan. Tojibarglari och-pushti binafsha rangda, 25 mm uzunlikda. Yong'oqchasi yumshoq, uch qirrali, och-qo'ng'ir 2,5 mm uzunlikda.

Iyun-iyul oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari yetiladi.

Vohalarda ekinzorlarda va bog'larda, tog'oldi hududlarida o'sadi. Andijon, Farg'ona, Samarqand va Surxondaryo viloyatlarida tarqalgan.



Bargining damlamasi burushtiruvchi, dezinfeksiyalovchi va yallig'lanishga qarshi ta'sir etuvchi vosita sifatida yuqori nafas yo'llarining yallig'lanishida, tomoq, milk shilliq pardalarining yallig'lanishida og'iz chayish uchun qo'llaniladi. Bargi tomoq, me'da kasalliklari va ichketarda ishlatiladigan choylar yig'malar tarkibiga kiradi.

Hisor ko'kamarini (*Shlemnik gissarskiy-Scutellaria hissarica* B.Fedtsch). Ko'p yillik, ko'p sonli poyalar hosil qiluvchi, shoxlangan, tuksiz, balandligi 20-50 sm. Barglari keng ayrisimon, keng tuxumsimon, chetlari katta arrasimon tishli, yuqoridagi barglarining chetlari tekkis. Gullari kalta tutqichli bittadan barglar qo'ltig'ida joylashgan. Kosachasi 5 mm uzunlikda, urug'lari yetilganda 7-8 mm yetadi. Tojibarglari to'q binafsha, 22-25 mm uzunlikda, ustkilab guli sariq, binafsha dog'li.

May-iyun oylarida gullab, iyul-avgust oylarida urug'lari yetiladi.

Tog'ning o'rta mintaqalaridagi qoyalarda o'sadi. Surhondaryo viloyati (Hisor tizmasidagi Sangardak, To'palang daryo havzalarida) tarqalgan.

Gullari va barglaridan choy tayyorlab burundan qon ketishida ichiladi. Shamollashda, oshqozon ichaklar shamollaganda ham qo'llaniladi. Yurak qon tomirlar xastaligida, tinchlantiruvchi, quvvatga kirituvchi sifatida ham qo'llaniladi.

Tog' qudusi (*Stachus betoniciflora* Rupr-*Betonica officinalis* L). Ko'p yillik, tik o'suvchi, tuklar bilan qoplangan, balandligi 40-100 sm. Barglari lansetsimon, yirik arrasimon tishchali, uzun bandli, poyadagilari o'troq. Gullari boshhoqsimon poyani uchida joylashgan. Kosachasi 11-13mm uzunlikda, tuklangan, qiska uchburchaksimon. Toj barglari to'q kizil, 16-20 mm uzunlikda.

Iyun-avgustda gullaydi, iyul-sentyabrda urug'lari yetiladi.

Butalar orasida, tog'ni o'rta mintaqalarida o'sadi. Toshkent, Namangan viloyatlarida tarqalgan.

Tibbiyotda yer ustki qismi ishlatiladi. Tarkibida efir moyi, flavonoidlar, alkaloidlar, stahidrin, iridoidlar, vitamin S va K, smolalar bor. Suyuq ekstrakti yallig'lanish va fibromioma natdjasida bachadondan qon ketishini to'xtatib hamda tug'ishdan so'ng va abortdan keyingi bachadon qisqarishini kuchaytirish (o'z holiga kelishini tezlatish) uchun qo'llaniladi.

Xalqimiz ushbu o'simliklarni inson hayotida qanchalik ahamiyatli ekanligini bilgan holda kamayib borishiga o'zlari sababchi bo'lib qolmoqdalar. Shu o'rinda ushbu oilaning dorivor vakili komarovn tog'bo'znochi dorivor xususiyati va kamayib borish sabablariga to'xtalishni joyiz bildim.

Komarovn tog'bo'znochi (ajdarbosh-Zmeegolovnik komarova -*Dracocephalum Komarovii* Lipsky). Ko'p yillik, poyalari ko'p sonli, asos qismi yo'g'onlashgan, balandligi 10-20 sm. Barglari uchburchaksimon, asosan yuraksimon, chetlari tekkis, kalta bandli. Gullari yuqori qismidan kichraygan, barglar qo'ltig'idan bittadan hosil bo'ladi, kalta tutqichli. Kosachasi 10-11mm uzunlikda binafsha rangda, ikki labli, mayda burmali, uch tishchali. Tojibarglari ko'rinishi, tashqi tomondan momiq tuklar bilan qoplangan, 20-22 mm uzunlikda. Yong'oqchasi nashtarsimon uzunchoq uch qirrali, tekkis, 3 mm uzunlikda.



Iyul-avgust oylarida gullab, avgust-sentyabrda urug'lari yetiladi.

Tog'larni yuqori qismidagi toshli joylarda o'sadi. Toshkent, viloyati (Oxongaron daryosini yuqori qismida) tarqalgan.

Maxalliy axoli tomonidan qadirlanib uni tuyub, qaynoq suvga bir choy qo'shib choy o'rnida ham istemol qilinadi. Qaynoq choyi oshqozon spazmasida, qorindagi boshqa og'riqlarda ham ichiladi.

Kamyoblik darajasi 2 (kamyob tur) O'rta Osiyoda areali bo'lingan, kamayib borayotgan endem o'simlik. Kamayib borish sabablari mahalliy aholi gullab turgan paytida dorivor o'simlik sifatida ko'plab yig'ib olinadi. Yoz faslida esa bu yerlarda chorva mollar boqilishi.

O'simlikni asrash maqsadida: O'simlik tarqalgan maydonlarning bir qismi (Maydantol daryosining yuqori qismi) Chotqol biosfera qo'riqxonasi hududiga qarashli bo'lib muhofaza ostiga olingan.

Xulosa o'rnida shuni aytish joyizki jannatmakon yurtimizda o'sadigan Yalpizdoshlar(Lamiaceae) oilasing dorivor vakillarini asrashimiz lozim. Buning uchun oilaning dorivor vakillarini yoppasiga ildizi, ildizpoyasi, piyozi va tunganagini, gullab urug'ini to'kmasdan yig'ib olinishini , mollarni dorivor o'simliklar o'sadigan maydonlarda boqilmasligini nazoratga olishimiz, dorivor o'simliklardan to'g'ri foydalanib ularni asrashimiz shuningdek yalpizdoshlar (Lamiaceae) oilasining dorivor o'simliklarni madaniy plantatsiyalarini ko'paytirishni yo'lga qo'yishimiz lozim.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

- 1.O'zbekiston Respublikasi Qizil kitobi I jild o'simliklar va zamburug'lar - "Toshkent" -2009 "Chinor ENK"
2. O'zbekiston florasida uchraydigan dorivor o'simliklar ( S.Meliboyev va boshqalar ) - "Farg'ona" nashriyoti - 2018
- 3.<https://uz.m.wikipedia.org>
4. O'simlik aniqlagichi (Maktab o'qtuvchilari uchun qo'llanma 2- nashir S.Xoliqov, O'.Pratov , A.Fayziev) - Toshkent «O'qituvchi» 1995